

# Markaziy Osiyoda yangi tur aniqlandi

O'zR FA Zoologiya instituti katta ilmiy xodimi Dilosa Daminova va MDH olimlari tomonidan fan uchun yangi hasharot turi topildi.



O'zbekiston va Turkmaniston Ilm-fani uchun yangi tur: *Eumerus bilobatus* sp. n. ta'riflandi. Mazkur tur *Eumerus* Meigen, 1822 avlodi, *bactrianus* kichik turkumi, *strigatus* guruhiga kiradi, (sensu Grkovich va boshq., 2019). Yangi tur *E. bifurcatus* van Steeniset Hauser, 2019 ga yaqin, ammo ocellar uchburchagida sariq tuklari borligi, orqa sonida unchalik uzun bo'lmagan ventral tuklari hamda IV-tergitning orqa chegarasida sariq-jigarrang chiziqlari mavjudligi, erkagining genitaliysi boshqacha tuzilganligi bilan farq qiladi (*E. bifurcatus* da esa, ocellar uchburchagidagi tukchalar qora rangda, pastki sonida tuklari yuqoridagisidan 3-5 marotaba uzunroq va IV-tergit butunlay qora rangda).